

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60210400 – Dizayn (*landshaft dizayni*) bakalavriat
ta’lim yo‘nalishining malaka talablari

Toshkent - 2023

ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «___» _____ dagi ____ - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	60210400 – Dizayn (landshaft dizayni) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	60210400 – Dizayn (landshaft dizayni) ta’lim yo‘nalishi malaka talabining qo‘llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	60210400 – Dizayn (landshaft dizayni) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.	4
1.2.1.	60210400 – Dizayn (landshaft dizayni) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	4
1.2.2.	60210400 – Dizayn (landshaft dizayni) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari.....	4
1.2.3.	60210400 – Dizayn (landshaft dizayni) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	60210400 – Dizayn (landshaft dizayni) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy vazifalari.....	5
2.	60210400 – Dizayn (landshaft dizayni) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	8
2.3.1.	Kvalifikasiya.....	8
2.3.2.	60210400 – Dizayn (landshaft dizayni) ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar	9
2.3.3.	60210400 – Dizayn (landshaft dizayni) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi.....	10
	Bibliografik ma’lumotlar.....	11
	Kelishuv varag‘i.....	12

1. 60210400 – Dizayn (landshaft dizayni) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60210400 – Dizayn (landshaft dizayni) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60210400 – Dizayn (landshaft dizayni) bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talabining qo'llanilishi

Malaka talabi 60210400 – Dizayn (landshaft dizayni) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

– mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

– ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

– bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

– ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60210400 – Dizayn (landshaft dizayni) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60210400 – Dizayn (landshaft dizayni) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlariining sohalari.

60210400– Dizayn (landshaft dizayni) ta'lim yo'nalishi – san'at sohasiga oid ta'lim yo'nalishi bo'lib, arxitekturaviy va badiiy loyihalash usullarini ishlab chiqish, bog' va parklarni loyihalash jarayonida sintez va optimizatsiya qilish, ishlab chiqarish bilan bog'lash, dizayn mahsulotining estetik va psixologik jarayonini o'rganish va qurilish konstruksiyalarining asosiy tiplarini o'rganish va qayta ishlash, jamoat va turar joy binolarining intererini loyihalash, loyihalash firmalarining tashkiliy faoliyatlarida, tadqiqot jarayonida ishtirok etish, vazifasiga ko'ra bino va inshootlarning intererlarini, arxitekturaviy-fazoviy muhitini, landschaft dizayn ob'ektlarini loyihalash, professional ta'lim tizimi muassasalarida pedagogik faoliyat, shuningdek ilmiy-tadqiqot faoliyati, davlat boshqaruvi organlari, boshqa davlat va nodavlat muassasalarida san'at sohasi ta'lim yo'nalishlariga mos kasbiy faoliyat yuritish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60210400 – Dizayn (landshaft dizayni) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

- loyihalash, ishlab chiqarish va obodonlashtirishga oid davlat va xususiy korxonalarda ishlash;
- davlat va mahalliy boshqaruv organlari, san'at sohasi boshqaruv organlarida boshqaruv jarayonlari;
- landschaft dizayni sohasida ishlash;
- turar-joy va jamoat binolari intererlarida qishgi bog'ni yaratish sohasida ishlash.

60210400 – Dizayn (landshaft dizayni) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. 60210400 – Dizayn (landshaft dizayni) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- ilmiy tadqiqot faoliyati;
- ishlab chiqarish va texnologik faoliyat;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati.

1.2.4. 60210400 – Dizayn (landshaft dizayni) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari

60210400 – Dizayn (landshaft dizayni) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot faoliyatida:

- arxitekturaviy va badiiy loyihalash usullarini bilish;
- arxitekturaviy va badiiy loyihalashda zamonaviy texnik manbalarni qo'llashni bilish (kompyuter dasturlar, kompyuter grafikasi);
- arxitekturaviy fazoni shakllantirishda zamonaviy talablarni o'rganish;
- ilmiy-tadqiqot va loyiha ishlarini bajarishda ishtirok etish;
- dizayn ob'ektlarini loyihalash landschaft muhitini tashkil qilish, ularni amaliyotga kiritish hamda jihozlar, melioratsiya, drenaj va o'simliklarni tanlash tizimlarini standartizatsiyalash bo'yicha tadqiqotlarda ishtirok etish;
- respublika va xorijda chop etilgan san'at sohasiga oid ilmiy-texnik axborotlarni va ilmiy manbalarini o'rganish;
- san'at sohasiga tegishli ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;
- san'at ta'lim sohasiga tegishli ilmiy mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy- texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;
- ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni soha amaliyotiga tadbiq etishda qatnashish;
- internet tarmog'ida sohaga tegishli eng yangi ilmiy, texnologik yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'naltirilgan holda qidirish va topish;
- ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (tayyorlanganlik profiliga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini echish va boshqarish jarayonlarini rejalashtirish, kutilayotgan xavf-

xatarlarni tahlil qilish va boshqarish;

- xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;
- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishlaridagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- ma'lumotlarni jamlaydi, qayta tayyorlaydi, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tadbiq etish;
- ilmiy muammolar echimi natijalarini amaliyotga joriy etish.

Ishlab chikarish-texnologik faoliyatida:

- san'at sohasiga tegishli namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga qo'llash;
- arxitekturaviy muhitini qayta ta'mirlashda texnologik jarayonlarni qo'llash va qayta ishlash;
- loyihaviy va dasturlarga oid hujjatlarni ishlab chiqish;
- ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni rivojlantirish va ulardan foydalanish;
- landshaft dizaynining ochiq fazoviyligida ishlash;
- dizayn elementlarini qayta ishlab chiqish va ularni qo'llash;
- o'simliklar mavjud bo'lgan rekreatsiya zonalarini tashkil etishda konseptual fikrlash metodlarini qo'llash;
- tahliliy masalalarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan va texnik vositalardan foydalanish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirishda erishilgan natijalarini baholash;
- birlamchi ishlab chiqarish bo'g'inining ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan qurilish ishlarining texnologik jarayonlarini monitoring qilish va sifatini baholash uslublari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muxofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga rioya qilish talablaridan kelib chiqib ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirishda sifatni boshqarish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash.

2. 60210400 – Dizayn (landshaft dizayni) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy va dizayn sohasiga oid fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy va ijodiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi lozim.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- dizayn kompozitsiyasi asoslari, vositalari va turlarini bilish, landschaft dizaynining hajmiy-fazoviy kompozitsiyasi tasviriga professional yondashish;
- dizayn ob'ektlarini Autodesk programmalarida loyihalash bo'yicha bilimlarga ega bo'lish, qurilish konstruksiyalari tizimini, turar joylarda va jamoat binolarida zamonaviy muhandislik jihozlarini qo'llash;
- turarjoy va jamoat binolarida qishki bog'lar va yashil rekreatsion zonalarini loyihalashni bilishi;
- injenerlik geodeziyasi va geologiyasi asoslarini bilishi va kasbiy faoliyatida qo'llay olishi;
- landschaft dizayni ob'ektlarini loyihalash va qurishda O'zbekiston tabiiy iqlim sharoitlari xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirish;
- kompozitsion modellash vositalari bilan ishlash, tekis va hajmiy-fazoviylikni yaratishda grafik echimlar, landschaft dizaynida grafik modellarni yaratish, predmetni o'rganish jarayonida o'rganilgan uslublarni qo'llash va grafik materiallarda qo'llaniladigan vositalar, turli davrdagi landschaft uslublarini kompyuter loyihalashda shakllantirish xususiyatlariga qarab yaratish, ranglar muhitini va landschaft loyihalash, loyihani arxitekturaviy-grafik bezatish, amaliy bajarilgan landschaft dizayn loyihasini tushuntirish xati bilan to'ldirishni ta'minlashi lozim;
- landschaft dizayni ob'ektlarini loyihalash va amalga oshirishda an'anaviy me'moriy uslublardan va dekorativ elementlardan foydalanishni bilish;
- arxitektura ashyolarining xususiyatlarini, xossalarini, ularni ishlab-chiqarish va qo'llash texnologiyalarini bilish;
- tuproqshunoslik asoslarini va o'simliklarni ekish, parvarishlash agrotexnika qoidalarini bilishi;
- dizaynning paydo bo'lishi va rivojlanish tamoyillari, dizayndagi uslublar va ularning xususiyatlari, buyuk namoyondalari ijodini bilishi;
- tasvirning usullari va texnologiyalari, ko'chalar perspektivasi, suv yuzasi va er reliefi, tonallik perspektivada tasvir tizimi, ranglar doirasi qonuniyati sohasi, yaqin, o'xshash ranglar, qarama-qarshi koloristik uyg'unlikda tashkil topgan ranglarning usullari, rangtasvir tasviriy san'atning bir ko'rinipsh sifatida, rangtasvir eskizi yordamida ranglar aksentini joy-joyiga qo'yishni, dekorativ haykaltaroshlik asarini modellashtirish, dekorativ xaykaltaroshlik asarini kattalashtirish usullarini qo'llash;
- loyihalashning turli bosqichlarida chiziqlarning grafik bajarilishi, arxitekturaviy shriftlar, chiziqli grafika, oq-qora va yarim xromatik grafika, loyihalash amaliyotida dunyo madaniyatida erishilgan yutuqlardan foydalanishni, loyihalashniig barcha bosqichlarida loyihaviy hujjatlarni amalga oshirishni;
- uslublarning paydo bo'lish tarixi, san'atning janri va turlari, san'at va madaniyatning turli

janr va turlarida uslubiy yo‘nalishlarining sinxron o‘zgarishi, xalqaro meros va regional madaniyat sohasida keng tushunchaga ega bo‘lish;

- jonli tabiatdagi qurilmalar tamoyillaridan dizayn ob‘ektlarini loyihalashda foydalanish, daraxt va o‘simliklarni kuzashni amalga oshirish;

- loyihalangan bino va inshootlarning maketini va modelini yaratish;

- yorug‘lik dizayni asoslarini, yoritish tamoyillarini, qoidalarini va uskunalarini bilishi;

- chizma geometriya va binolarning perspektiv ko‘rinishini qurishni bilishi va loyihalash jarayonida qo‘llashi;

- daraxt va o‘simliklarning xususiyatlarini, ulardan kompozitsiya yaratish usullarini bilishi va ulardan amalda foydalanishi;

- shaharsozlik va transport asoslarini va ularni obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish tamoyillarini bilishi;

- hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilishi;

- jamoat va turar-joy binolarini loyihalashda kompleks usullar, badiiy konsepsiyaning roli, arxitekturaviy grafika va topshiriqlar sohasida bilimlarga ega bo‘lishi;

- dekorativ bog‘dorchilik, dendrologiya, o‘simliklarni himoya qilish bo‘yicha landshaft dizayniga tegishli bo‘lgan bilimlardan foydalanishni;

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash, ilmiy seminar, konferensiyalar va simpoziumlarda ilmiy maqolalar bilan qatnashish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e‘lon qilingan tanlovlarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo‘lishi.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarini o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulotlar va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta‘minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta‘lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyot o‘tkaziladi:

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratilgan.

2.3.1. Kvalifikatsiya: Landshaft dizayneri.

2.3.2. 60210400 – Dizayn (landshaft dizayni) ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:

O‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratiladigan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	6300	192
Tanlov fanlar	900	30
Malakaviy amaliyot	420	14
Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4

2.3.3. 60210400 – Dizayn (landshaft dizayni) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T.r	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoiyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o‘tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	5760	192	
1.01	OM1105	Oliy matematika	150	5	1
1.02	O‘T(RT)1204	O‘zbek (rus) tili	120	4	2
1.03	XT1108	Xorijiy til	240	8	1,2
1.04	O‘EYT1105	O‘zbekistonning eng yangi tarixi.	150	5	1
1.05	FAL1305	Falsafa	120	4	3
1.06	D1404	Dinshunoslik	120	4	4
1.07	ChGMG1112	Chizma geometriya va muhandislik grafikasi	360	12	1,2
1.08	KL1315	Kompyuterda loyihalash	480	16	3,4,5
1.09	AKLA1115	Arxitekturaviy kompozitsiya va loyihalash asoslari	450	15	1,2,3
1.10	AQRH1115	Arxitekturaviy qalamtasvir va rangtasvir	450	15	1,2,3
1.11	ATN1513	Arxitektura tarixi va nazariyasi	270	9	5,6
1.12	IG1305	Injenerlik geodeziyasi	150	5	3
1.13	AA1404	Arxitekturaviy ashyoshunoslik	120	4	4
1.14	AK1404	Arxitekturaviy konstruksiyalar	120	4	4
1.15	LL1523	Landshaftni loyihalash	690	23	4,5,6,7,8
1.16	DEN1505	Dendrologiya	150	5	5
1.17	DBG1505	Dekorativ bog‘dorchilik va gulshunoslik	150	5	5
1.18	AB1604	Arxitekturaviy bionika	120	4	6
1.19	TO‘A1604	Tuproqshunoslik va o‘simliklar agroteknikasi	120	4	6
1.20	STA1604	Shaharsozlik va transport asoslari	120	4	6
1.21	MK1705	Muhandislik kommunikatsiyalari	150	5	7
1.22	LLLOA1705	Landshartni loyihalashda loyiha oldi analizi	150	5	7
1.23	LD1705	Landshaft dizayni	150	5	7
1.24	AKM1705	Art konstruksiya va maketlash	150	5	7
1.25	JMJ1804	Jihozlarni (mebel) loyihalash	120	4	8
1.26	QTEK1804	Qurilishni tashkil etish va rejalashtirish	120	4	8
1.27	LDF1804	Landshaft dizayni va floristika	120	4	8
1.28	ERG1305	Ergonomika	150	5	4
2.00		Tanlov fanlari			
2.00		Tanlov fanlari	900	30	2,4,5,6,7,8
		Jami		222	
		Malakaviy amaliyot	420	14	2,4,6,8
		Yakuniy davlata ttestatsiyasi	120	4	8
		Jami	540	18	
		Hammasi	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T

55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, bakalavriatning o'quv o'quv reja va fan dasturi, profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, malaka amaliyoti, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy boshqaruv faoliyati, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim tashkiloti, ta'lim jarayoni, loyihalash, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, landshaft dizayni, ritm, kombinatorika, kolorit, axromatik va xromatik ranglar, issiq-sovuq ranglar, ranglar yordamida shakl yasash va buzish, detal, faktura, tekstura, modul, model, obraz, tektonika, arxituktonika, frontal, hajmiy va hajmiy-fazoviy kompozitsiyalar, birinchi plan, orqa plan, manzara kompozitsiyasi, kompozitsion joylashuv, kompozitsion echim, antropometriya, fazoviy tasavvur metodlari va usullari, konstruksiya, texnologiya, konstruktiv tizimlar, qurilish materiallari, texnologik ketma-ketlik, mo'jaz bog' uslublari, regulyar va manzara landshaft uslublari, par va bog'lar, interer va eksterer, furnitura, jihoz, plastik figuralar va haykallar, mo'jaz arxitektura shakllari, dendrologiya, topiar san'ati, floristika.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar
iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:



Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Rektor

R.I.Xalmuradov

2023 yil «__»

M.O.

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi

Direktor

2023 yil «__»

M.O.

Samarqand viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi
boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari
viloyat bosh arxitektori

S. Narzikulov

2023 yil «__»

M.O.



Samarqand shahar "Me'morqurilishloyiha"

MCHJ direktori

R. Vaxidov

2023 yil «__»

M.O.

